

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO‘PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	21
Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich	



O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Abduxalilov S.A.

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
Email: sardorbej572@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Normurodov X.E.

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
Email: xnormurodov2020@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davridan buyon O'zbekistonda moliya sektori sohasida amalga oshirilgan islohotlar bayon etiladi, jumladan, O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishga asos bo'luvchi ichki va tashqi omillar hamda jahon tajribasidan foydalanish usullari tahlil qilindi. Ushbu ilmiy tadqiqot so'ngida O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: moliya sektori, islom moliyasi, raqamli transformatsiya, institutsional omillar, masofaviy bank xizmatlari, fintech, iqtisodiy o'sish, fond bozori, investitsiya muhiti, tranzaksiya xarajatlari.

Abstract: This article describes the reforms implemented in the financial sector of Uzbekistan since the independence period. In particular, the internal and external factors serving as the basis for the development of this field in Uzbekistan, as well as methods of utilizing international experience, were analyzed. At the conclusion of this scientific research, proposals for the development of the financial sector in Uzbekistan were developed.

Keywords: financial sector, islamic finance, digital transformation, institutional factors, remote banking services, fintech ecosystem, economic growth, capital market, investment climate, transaction costs.

Аннотация: В данной статье описываются реформы, реализованные в финансовом секторе Узбекистана с периода обретения независимости. В частности, проанализированы внутренние и внешние факторы, послужившие основой для развития этой сферы в Узбекистане, а также методы использования мирового опыта. В завершение данного научного исследования были разработаны предложения по развитию финансового сектора в Узбекистане.

Ключевые слова: финансовый сектор, исламские финансы, цифровая трансформация, институциональные факторы, дистанционные банковские услуги, финтех, экономический рост, рынок капитала, инвестиционный климат, транзакционные издержки.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib dunyo davlatlari globalizatsiya jarayonini boshidan o'tkazmoqda. Bu jarayonda asosan iqtisodiyot va moliya sektoriga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, har bir davlat rivojida muhim ahamiyatga ega. Bu sohalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy ustun ichida moliya sektori bo'lib, u iqtisodiyotning tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Chunki moliya sektori bo'lmasdan iqtisodiy barqarorlikni tasavvur qilish qiyin.

Odatda, moliya sektori deb iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning jamlanishi, taqsimlanishi va boshqarilishi orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizim tushuniladi. U banklar, sug'urta, kapital bozori, investitsiya institutlari va moliyaviy infratuzilmani o'z ichiga oladi. Uning asosiy vazifalari kapitalni samarali taqsimlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdan iborat [18].

Jumladan, moliya sektorini rivojlantirish omillari deganda moliya tizimining barqarorligini ta'minlovchi, uning iqtisodiyotdagi vositachilik rolini kuchaytiruvchi hamda aholi va biznes uchun moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshiruvchi iqtisodiy, huquqiy va texnologik shart-sharoitlar tushuniladi. O'zbekistonda moliya sektorining rivojlanishi uchun yetarli manba, resurslar va omillar mavjud bo'lib, moliya sektorini rivojlantirishda mavjud omillarga to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirish omillari ichki va tashqi omillarga bo'lib o'rganiladi. Chunki moliya sektori juda dolzarb soha bo'lib, uni ichki va tashqi omillarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Moliya sektorini rivojlantirishda mamlakat ichidagi faktorlarni hisoblaydigan bo'lsak, ularga bank va kreditlash, moliyaviy kompaniyalar va bozorlar, raqamli moliya, qonunchilik, aholining moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy barqarorlik kiradi. Shuningdek, mamlakat tashqarisidan keladigan faktorlarga xorijiy investitsiyalar va donorlar, xalqaro moliya tizimi bilan integratsiya, global moliyaviy holat kabi omillar muhim ahamiyatga ega.¹

Ikkinchidan, O'zbekistonda mustaqillikka erishgach moliya sektorini rivojlantirish omillari 1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda asosan davlatning qat'iy nazorati ostidagi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizim sifatida shakllangan edi. Bu davrda banklar mustaqil tijorat faoliyati bilan shug'ullanish o'rniga, davlatning yirik investitsiya loyihalarini past foizlarda moliyalashtiruvchi "kredit bo'limlari" vazifasini bajardi. Tizimda valyuta konvertatsiyasining yo'qligi va kredit resurslarining faqat ma'lum bir doiradagi davlat korxonalariga yo'naltirilishi xususiy sektor rivojiga to'sqinlik qildi. Bank xizmatlari sifati past bo'lib, raqobat muhiti deyarli mavjud emas edi [2].

2017-yildan boshlab yangi hukumat tomonidan moliya sektorini tubdan modernizatsiya qilish bosqichi boshlandi. Yangi yondashuvning asosiy farqi — banklarni davlat nazoratidan chiqarish (transformatsiya) va ularni to'liq bozor tamoyillariga o'tkazishdir. 2020-yildagi strategik farmon bilan bank tizimida xususiy sektor ulushini 15 foizdan 60 foizgacha oshirish, davlat banklarini xususiylashtirish va xalqaro moliya institutlarini bozorga jalb qilish belgilandi. Agar avvalgi davrda asosiy e'tibor miqdoriy ko'rsatkichlarga (kredit hajmini oshirishga) qaratilgan bo'lsa, yangi bosqichda asosiy urg'u xizmatlar sifatini oshirish, raqamli bank xizmatlarini (FinTech) joriy etish va inflyatsiyani jilovlashga (monetar siyosat) qaratilmoqda [2].

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.2017 yildagi "Kichik tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlari tashkil etish va kam ta'minlangan oilalarga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 655-son² qarorida "Mikrokreditbank" ATBga yuklatilgan yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida kichik tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun kredit berish, oilaviy tadbirkorlik, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati, kasanachilik, hunarmandchilik va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish uchun mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish kabi vazifalar O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor omillari hisoblanadi [1].

Jumladan, O'zbekistonda Islom moliyasiga asoslangan moliya-bank tizimlarini joriy etish moliya sektorining rivojlanishiga turtki bo'la oladi. Chunki statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston aholisining 20 % ga yaqini an'anaviy kredit mahsulotlarini tanlamasligi, amalda ularning Islom moliyasiga qiziqish bildirishini ifodalaydi. Agar O'zbekistonda Islom moliyasi joriy etilsa, u yiliga O'zbekistonga 10 mlrd dollargacha pul mablag'larini jalb etishi mumkin [19].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya sektori rivojlanishining asosiy omili – bu axborot assimetriyasini kamaytirishdir. Ya'ni moliya sektorida tizim shunday ishlashi kerakki, investor kimga pul tikayotganini aniq bilishi, bank esa kredit olayotgan mijozga ishonishi kerak. Amerikalik iqtisodchi, Berkli universiteti professori Ross Levine'ning "Moliyaviy rivojlanish iqtisodiy o'sishning shunchaki natijasi emas, balki uni harakatlantiruvchi asosiy kuchi hisoblanadi" deb aytgan iqtibosi yuqoridagi tahlilga mos keladi [8].

Jumladan, O'zbekistonda moliya sektorida faqat birja, banklarga bog'lanib qolmasdan, uning funksiyalariga urg'u berish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki hozirda texnologiya o'zgarishi mumkin, ammo moliya sektori tizimida xatarlarni boshqarish va resurslarni jamlash o'zgar olmaydi. Rivojlanish omili sifatida tranzaksiya xarajatlarining kamayishini ko'radi. Amerikalik iqtisodchi, 1997-yilgi Nobel mukofoti sovrindori, Massachusetts Texnologiya Instituti professori Robert Merton'ning "Moliya tizimining rivojlanishi — bu yangi institutlar emas, balki eski funksiyalarni, ya'ni xatarlarni boshqarish va resurslarni jamlashni texnologik va huquqiy jihatdan arzonroq amalga oshirishdir" deb aytib o'tgan nazariyasi yuqoridagi tahlilga mos keladi [9].

O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishda moliyaviy erkinlik omili ham muhim ahamiyatga ega, lekin u siyosiy ta'sirlardan holi bo'lishi kerak. Hindistondan chiqqan mashhur iqtisodchi, Chikago universiteti professori, Hindiston Markaziy bankining sobiq raisi Raghuram Rajan'ning "Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi uchun siyosiy elitadan mustaqil bo'lgan kuchli huquqiy infratuzilma birlamchi omildir" deb aytgan mashhur fikri aynan moliya sektorining mustaqil bo'lishini amalda ifodalaydi [10].

Shuningdek, respublikada moliyaviy sektorning mustaqilligi va rivojlanishi uchun O'zbekistonda milliy kapitalning mamlakatda qolishini ta'minlaydigan rag'batlantiruvchi soliq va investitsiya muhiti eng muhim omillardan biridir. Agar moliya tizimi faqat xorijiy qarzlarga tayanib qolsa, u rivojlanmaydi, balki qaram bo'lib

1 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2680>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-3317011>



qoladi. Rossiyalik iqtisodchi, professor, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti bo'lim boshlig'i I. Yakov Mirkin'ning "Moliyaviy sektorni rivojlantirishning asosiy drayveri — bu ichki investitsiyalarning ulushini oshirishdir. Tashqi moliya bozorlariga qaramlikni kamaytirish va milliy kapitalning 'qochib ketmasligi' uchun sharoit yaratish eng muhim omildir" deb aytgan nazariyasi bu fikrlarga mos keladi [12].

O'zbekistonda moliya sektorining zamonaviy bosqichida fintech va ekotizimlarni asosiy drayver sifatida ko'rish mumkin. Chunki MDH sharoitida banklardan ko'ra raqamli platformalar moliya bozorini tezroq kengaytiradi. MDH va Markaziy Osiyo moliya bozorini, xususan fintech va banklar transformatsiyasini tadqiq qiluvchi taniqli iqtisodchi olim Abay Ayubayev "MDH sharoitida moliya sektorining sakrashi an'anaviy banklardan ko'ra raqamli platformalar va fintech ekotizimlarining integratsiyasiga bog'liq" deb aytgan edi [11].

Xususan, moliya sektori real iqtisodiyotga xizmat qilishi kerak. Chunki bunday rivojlanish omili past foizli va uzoq muddatli kreditlar berilishiga sabab bo'ladi va bunda moliya sektori haqiqiy o'sishga erishadi. Bu borada iqtisodiyot fanlari doktori, akademik, Rossiya Prezidentining sobiq maslahatchisi Sergey Glazyev "Moliya sektori o'z-o'zidan rivojlanmaydi; u real sektorga (sanoatga) maqsadli va arzon kreditlar yetkazib beruvchi mexanizmga aylangandagina barqaror o'sishga erishadi" deb fikr bildirgan edi [13].

O'zbekistonda moliya tizimi rivojida davlat budjeti barqarorlik omili ham muhim ahamiyatga ega. Chunki moliya sektori rivojlanishi uchun davlat budjeti defitsiti past bo'lishi lozim va soliq tizimi tadbirkorlarga og'irlik qilmasligi kerak. Bu O'zbekiston moliya sektorida sog'lom muhit yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tahlilga asos sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston moliya tizimining eng tajribali nazariyotchilaridan biri Toshmurod Malikov "Moliyaviy sektor rivoji bevosita fiskal siyosatning barqarorligiga bog'liq. Davlat budjeti va moliya bozori o'rtasidagi muvozanatni saqlash, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish sektor rivojining poydevoridir" degan edi.

Xususan, O'zbekistonda bank tizimini transformatsiya qilish asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda banklar shunchaki pul saqlaydigan joy emas, balki yuqori texnologik IT-kompaniyalarga aylanishi lozim. Chunki moliya sektorida raqobat va xizmatlar sifati rivojlanishning asosiy kaliti hisoblanadi. Bu borada iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent moliya instituti professori Shaxlo Abdullayeva "Bugungi kunda O'zbekiston bank-moliya sektorini rivojlantirishning eng kuchli omili — bu bank xizmatlarini transformatsiya qilish va raqamli platformalarga o'tishdir. Mijozga yo'naltirilgan xizmatlar raqobatni keltirib chiqaradi" deb aytgan edi.

Xususan, O'zbekistonda moliya sektorini diversifikatsiya qilish, ya'ni fond bozorini faollashtirish ham ustuvor omillardan biridir. Agar moliya sektori faqat banklardan iborat bo'lsa, iqtisodiy o'sishni cheklab qo'yishi mumkin. Chunki bu borada iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nodir Jumanov "Fond bozorini rivojlantirmasdan turib moliyaviy sektorning to'laqonli o'sishiga erishib bo'lmaydi. Xususiylashtirish jarayonlari va xalqaro obligatsiyalar chiqarish moliya bozorimizning likvidligini oshiruvchi asosiy omillardir" degan edi [15].

Biz jahon, MDH va Markaziy Osiyo olimlarining fikrini umumlashtirib "uchlik omil" zarur degan xulosaga kelamiz. Bularni institutsional, tarkibiy va texnologik omillarga bo'lamiz. Chunki institutsional omil orqali kapital jalb qilinadi, tarkibiy omil orqali jalb qilingan kapital to'g'ri sarflanadi, texnologik omil orqali esa yaratilgan xizmatlar aholiga yetkaziladi.

Yuqoridagi uchlik omilning O'zbekistonda qonuniy kuchga ega bo'lishi uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir qator qonunlar va farmonlar imzolangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son³ Farmonining 21-maqsadi aynan moliya bozorini rivojlantirish va mulk himoyasiga bag'ishlangan [3]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son⁴ Farmonida Sanoatqurilishbank, Asakabank, Aloqabank kabi yirik davlat banklarini xususiylashtirishning yo'l xaritasi belgilangan [4]. Bunday farmonlar yuqorida ilgari surilgan "uch omil"ni amaliyotda ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqot jarayonida moliya sektorining rivojlanish darajasini aniqlash uchun tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy tahlil va statistik guruhlash metodlaridan foydalanildi. Hamda olimlarning fikrlari umumlashtirilib, kontent-tahlil metodi asosida "Uchlik omil" modelining samaradorligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2025-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida korrelyatsion-regressiv tahlil qilinib, texnologik va institutsional o'zgarishlarning moliya tizimi shaffofligiga ta'siri isbotlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Hozirgi kunga kelib O'zbekiston moliya sektorini rivojlantirish omillari ta'sirida moliya sektorida katta sakrash amalga oshirildi. Chunki Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston moliya sektorini rivojlantirish

3 <https://lex.uz/docs/-5841063>

4 <https://lex.uz/docs/-4811025>

omillari yoki unga o'xshash farmonlari bu jarayonni ancha tezlashtirdi. Masalan, O'zbekiston moliya sektorini rivojlantirish institutsional, tarkibiy va texnologik omillar natijasida rivojlandi.

O'zbekiston moliya sektorini rivojlantirishda raqamlashtirish omili so'nggi besh yillikda ancha rivojlandi. Bunga onlayn bank xizmatlari, onlayn valyuta ayirboshlash, masofadan turib bank yoki davlat aktivlarini sotib olish kabi turli xizmatlarni keltirish mumkin. Raqamlashtirish omili natijasida O'zbekistonda aholining masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichi qariyb 4 baravarga oshgan (1-rasm).




1-rasm. Onlayn bank xizmatlaridan foydalanuvchilar tendensiyasi⁵

Demak, bu statistikadan ko'rish mumkinki, 2020-yilda aholining uchdan bir qismi masofaviy xizmatlardan foydalangan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli barchani qamrab oldi. Yuqoridagi statistikaga ko'ra, 2025-yilda 38,8 mln kishi bu xizmatlardan foydalanganini ko'rish mumkin. Mazkur ko'rsatkichning aholi sonidan yuqoriligi bitta foydalanuvchidagi faol hisobvaraqlar soni bilan izohlanadi.

Bu esa 2024-yil davomida masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 23,1 % ga o'sib, 2025-yil boshiga kelib 38,8 mln birlikni tashkil etganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning aholi sonidan ko'pligi banklar o'rtasidagi kuchli raqobat va aholining bir vaqtning o'zida bir nechta fintech mahsulotlaridan foydalanayotganini anglatadi.

Jumladan, bu tranzaksiyalar natijasida tadbirkorlarning biznesni raqamlashtirish jarayoni 2020-yilda 215 ming nafar bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib qariyb 1,6 mln dan oshdi. Shuningdek, so'nggi besh yillikda O'zbekiston moliya sektorini rivojlantirishda raqamlashtirish omilining asosiy infratuzilmasi — to'lov terminallari (POS-terminallar) tarmog'i alohida ahamiyatga ega. Ushbu sohaning oxirgi besh yillik statistikasi va rivojlanish omillari taqdim etilgan (2-rasm).



2-rasm. So'nggi besh yillikda o'rnatilgan terminallar va ular orqali oshirilgan tushumlar⁶

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/?ar-Filter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3506&year=2026&month=01&set_filter=&set_filter=Y

6 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.stat.uz



Statistikadan ko'rish mumkinki, 2021-yildan keyin O'zbekistonda moliya sektorida terminallar soni biroz kamaygan, ammo tushum miqdori 5 yil ichida 3,8 baravar oshgan⁷. Buning asosiy sabablari sifatida eski turdagi terminallar o'rnini ko'p funktsiyali smart-terminallar egallashi, Ayubayev aytgan fintech omili natijasida ko'plab tadbirkorlar jismoniy terminaldan ko'ra arzonroq va qulayroq bo'lgan QR-kod to'lovlariga o'tishi, internet-do'konlar va mobil ilovalar uchun jismoniy terminal shart emasligi, ularning o'rniga "virtual terminal"ni joriy etish sabablarini keltirib o'tish mumkin.

Jumladan, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya ($r > 0.98$) mavjudligi aniqlandi. Bu esa raqamlashtirish omili natijasida aholining moliyaviy faolligi oshganini va "soya"dagi iqtisodiyot ulushi kamayib, shaffoflik ta'minlanayotganini anglatadi. Tadqiqot doirasida moliya sektoridagi texnologik o'zgarishlarning amaliy natijalar bilan bog'liqligini isbotlash uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) orqali hisoblandi. Ya'ni korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalanildi:

$$r = \frac{\sum(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x_i - \bar{x})^2 \sum(y_i - \bar{y})^2}}$$

Bu yerda:

x_i - Masofaviy bank xizmati foydalanuvchilari soni (yillar kesimida);

y_i - POS-terminallar orqali tushumlar miqdori (yillar kesimida);

\bar{x} va \bar{y} - Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari [20].

Olingan r koeffitsiyenti 1 ga juda yaqin bo'lgani sababli moliya sektorini rivojlantirish omillarida masofaviy xizmatlarning kengayishi va naqd pulsiz to'lovlar hajmi o'rtasida funksional musbat bog'liqlik mavjud deb hisoblanadi. Bu raqamli infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishda omillarning barqaror ko'rsatkichga ega bo'lishi axborot assimetriyasini yo'qotadi hamda terminal orqali o'tgan har bir so'm avtomatik ravishda soliq organlarining ma'lumotlar bazasida (onlayn-NKM orqali) aks etadi. Bu esa moliya sektorida shaffoflikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot xulosalariga tayanib, O'zbekiston moliya sektorini yanada rivojlantirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, Islom moliyasini joriy etish orqali yiliga 10 mlrd dollargacha qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkoniyati mavjud, chunki aholining salmoqli qismi diniy qarashlari tufayli an'anaviy kredit mahsulotlaridan foydalanmaydi. Ikkinchidan, banklar shunchaki pul saqlash joyi emas, balki yuqori texnologik IT-kompaniyalarga aylanishi va mijozga yo'naltirilgan raqamli xizmatlarni transformatsiya qilishi zarur. Uchinchidan, fond bozorini diversifikatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish moliya bozorining likvidligini oshiruvchi asosiy omildir.

Shuningdek, moliya tizimining tashqi qarzlarga qaramligini kamaytirish uchun ichki investitsiyalar ulushini oshirish va milliy kapitalning mamlakatda qolishini ta'minlaydigan jozibador muhit yaratish lozim. Shu bilan birga, moliya sektori real iqtisodiyotga xizmat qilishi, ya'ni sanoat va kichik tadbirkorlik subyektlariga maqsadli hamda arzon kreditlar yetkazib beruvchi mexanizmga aylanishi barqaror o'sishning garovidir. Yakunda aytish mumkinki, moliya bozori va davlat budjeti o'rtasidagi muvozanatni saqlash hamda fiskal siyosat barqarorligini ta'minlash butun sektor rivojining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2017 yildagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5052-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3211749>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4581969>
5. Barnoyev Olim Soliyevich, Arslanov Dostonbek Nuraltidin o'g'li, <https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/issue/> <https://lex.uz/ru/docs/-3317011/40>

⁷ https://cbu.uz/en/statistics/paysistem/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3499&year=2026&month=01&set_filter=&set_filter=Y



6. Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati X.S.Umarov, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2680>
7. Levine, R. (2005). Finance and Growth: Theory and Evidence. Handbook of Economic Growth, Elsevier. https://www.researchgate.net/publication/279653715_An_analysis_of_privacy_risks_and_design_principles_for_developing_countermeasures_in_privacy_preserving_sensitive_data_publishing
8. Merton, R. C., (1995). A Conceptual Framework for Analyzing the Financial System. Harvard Business School Press. <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=310>
9. Rajan, R. G., (2003). Saving Capitalism from the Capitalists. Crown Business Publishing. <https://scholar.google.com/citations?user=Tb6hnVoAAAAJ&hl=en>
10. Ayubaev A. (2020). Moliyaviy bozorning raqamli transformatsiyasi. Olmaota: Iqtisodiyot. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-transformatsiya-finansovogo-rynka-riski-i-vozmozhnosti>
11. Mirkin Ya. M. (2015). Rossiyaning moliyaviy strategiyasi. Moskva: Mysl. <https://www.mirkin.ru/docs/book067.pdf>
12. Glazyev S. Yu. (2016). Pul tizimini barqarorlashtirish. The Economist jurnali. https://ershovm.ru/files/publications_document_295.pdf
13. Abdullayeva Sh. Z. (2021). Bank ishi. Darslik. Toshkent: Moliya. <https://ru.scribd.com/document/828742442/2024-12-03-11-18-56-06be5c6bd8b26932ca81767e9c2c3237>
14. Jumanov N. X. (2018). O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Ilmiy monografiya. <https://cyberleninka.ru/article/n/fond-bozorini-rivojlantirish-orqali-iqtisodiy-taraqqiyotga-erishish-yo-llari#:~:text=Strategik%20rivojlanish%20va%20ijtimoiy%20diqtisodiy%20islohotlar%20sharoitida%20fond,qimmatli%20qog'ozlarning%20birlamchi%20va%20ikkilamchi%20bozorini%20rivojlantirish%2C>
15. O'zR Markaziy banki "To'lov tizimlari statistik ko'rsatkichlari" (2020-2025). https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3506&year=2026&month=01&set_filter=&set_filter=Y
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlangan tahliliy ko'rsatkichlar. (2020-2025). "To'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi". <https://cbu.uz/uz/statistics/payments/>
17. Barnoyev Olim Soliyevich Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida o'qituvchisi Arslanov Dostonbek Nuralitdin o'g'li Jizzax politexnika instituti "Servis" fakulteti BH-A yo'nalishi talabasi <https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmdpl/article/view/1882>
18. Bahrom No'monov, Apex bank raisi, 24.06.2023, Toshkent moliyaviy forumi. www.kun.uz
19. Abdushukurov A.A. Ekonometrika. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2015. – 248 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100